- qurilish ob'ektlarini ijtimoiy sug'irtalash (0,32 %) - 0,00 ming so'mni;
- qo'shimcha qiymat solig'i (15%) - 3638,021 ming so'mni tashkil etadi.

2. Tavsiya etilayotgan cheklangan qiymat miqdor buyurtmachi va pudratchi o'rtasida shartnoma

tuzishga asos bo'la olmaydi.

3. O'zbekiston Respublikasining 22.04.2021 yildagi 684-sonli qonuni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.01.2022 yildagi 46-sonli qarori talablariga rioya etilgan holda hamda ShNK 4.01.16-09 me'yorlariga muvofiq tanlov savdolarini o'tkazish uchun ob'yektning qiymati buyurtmachi tomonidan belgilanadi. Tasdiqlash uchun tavsi

Bosh mutaxassis: Toshbayev O'ktamjon Abdurayimovich

Ishtirokchi ekspertlar:

Muxammadiyev Abduqosim



XALQ DEPUTATLARI MIRZAOBOD TUMANI KENGASHI Q A R O R I

2022 - yil 24 - aprel

VI-48-68-9-125-K/22

Mirzaobod tuman hokimligi

Mirzaobod tuman mahalliy byudjeti 2022-yilning birinchi bosqichida shakllangan qo‘shimcha manbalarni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish yuzasidan tuman Moliya bo‘limi mudiri I.Sattarovning hisoboti to‘g‘risida.

O‘zbekiston Respublikasi Byudjet Kodeksining 126-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qaroriga asosan, Mirzaobod tuman Moliya bo‘limining 2022-yil 11-apreldagi №01/20-03-38/84-sonli hatini inobatga olib O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6,24-moddalariga muvofiq, Xalq deputatlari Mirzaobod tuman Kengashi **qaror qiladi:**

1. Mirzaobod tuman mahalliy byudjeti 2022-yilning birinchi bosqichida shakllangan qo‘shimcha manbalarni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirish yuzasidan tuman Moliya bo‘limi mudiri I.Sattarovning hisoboti ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 13-apreldagi “Byudjet jarayonida fuqarolarning faol ishtirokini ta‘minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-5072-sonli qaroriga muvofiq Mirzaobod tuman mahalliy byudjeti 2022-yilning birinchi bosqichida shakllangan qo‘shimcha manbalarni “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan mablag‘lar Nizom talablariga asosan 1-ilovaga muvofiq jamoatchilik fikri asosida yo‘naltirilsin.

3. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan jamoatchilik fikri asosida g‘olib takliflarni amalga oshiruvchi byudjet tashkilotlari rahbarlariga:

- “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan jamoatchilik fikri asosida sohalarga ajratilayotgan mablag‘larini jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarga yo‘naltirish bo‘yicha loyiha smetalarini ishlab chiqsinlar va belgilangan tartibda moliyalashtirilishini ta‘minlasinlar.

4. Tegishli soha vakillari “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”dan ajratilgan mablag‘larni maqsadli sarflanishi yuzasidan mas‘ul ekanligi belgilansin hamda amalga oshirilgan ishlar yuzasidan Xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritsinlar.

5. Tuman hokimligi axborot xizmati (I.Sultonova)ga:

- jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarning moliyalashtirilishi hamda amalga oshirilgan ishlar bo‘yicha ma‘lumotlarni keng jamoatchilikka muntazam ravishda yoritib borish tavsiya etilsin.

6. “Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi”da shakllangan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda faqat jamoatchilik fikri asosida shakllantirilgan tadbirlarni moliyalashtirishga yo‘naltirilsin va ushbu mablag‘larning boshqa maqsadlarga ishlatilishi taqiqlansin.

7. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish Xalq deputatlari tuman Kengashi huzuridagi Mahalliy byudjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiya raisi M.To‘rayev zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi



J.Yariyev

Mirzaobod tumani bo'yicha 2022-yilda jamoatchilik fikri asosida shakillangan tadhirlarni moliylashtirish bo'yicha
MANZILLI RO'YHAT

№	Taklif ID raqami	G'olib taklif ma'lumotlari		Amalga oshirishning aniqlangan qiymati	Haqiqatda ajratilgan*	Moliylashtirish manbasi (FTJ, qo'shimcha manba, byudjet parametri)	Buyurtmachi tashkilot
		Qisqacha mazmuni	To'plangan ovozlari soni				
"Fuqarolar tashabbusi jang'armasi" da shakillangan mabag'					2 523 000	x	x
1	1260400136	Mirzaobod tumani Do'ngariq mahallasi Chaman ko'chasi 10-uyda joylashgan Mirzaobod tumani kasb xunar maktabi o'quv ustaxonasi mukammal ta'mirga muxtoj. Shuningdek payvandlash, chilangarlik ustaxonalari jixozlari manaviy eskirgan. Avtomobillarga texnik xizmat ko'rsatish ustaxona jixozlariga extiyoj mavjud	2203	100 000	100 000	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Mirzaobod tumani kasb xunar maktabi
2	1260400040	Mirzaobod tumani Do'ngariq maxallasida joylashgan 33 - sonli maktabni o'quvchilarga kerakli shart-sharoit yaratish maqsadida joriy ta'mirlash zarur. Maktabning umumiy axvoli qoniqsiz bulib ta'mirga muxtoj.	2118	700 000	700 000	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
3	1260400063	Mirzaobod tumanidagi "Dehqonobod" mahallasida joylashgan 21-umumiy o'rta ta'lim maktabi 1988 yilda qurilgan bo'lib, 2008 yilda faqatgina maktabning tom qismi ta'mirlangan. Bugungi kunda maktabning eshik va romlarni zamonaviy AKFA eshik va romlarga almashirilishi, tayanch sinf xonalarga elektron doska o'rnatilishi, 26 ta sinf xonalarga kuzatuv kameralari o'rnatilishi, 1 sinf komplekt kompyuter jihozi, ochiq sport maydoniga suniy qoplama o'rnatilishi, sport zal ta'mirlanishi va jihozlanishi zarur	1829	350 000	350 000	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
4	1260400164	Siradaryo viloyati, Mirzaobod tumanidagi 10-sonli maktabga zamonaviy 12 achkoli hojatxona qurish. Maktabning hozirgi kundagi hojatxonasi 1987-yil qurilgan hozirgi kunda yaroqsiz holatga kelib qolgan. Maktabning yong'in havfsizlik hovizi (suv saqlash uchun 7x12) tamirlalab. Maktabga kirish, hojatxonaga boradigan, sport maydoniga boradigan yo'laklar va hovillari tamirlalab (1600 kv/m). Maktabdagi 4 ta o'quv honadagi o'quv mebellar yaroqsiz holatda. Ta'lim sifatini oshirish uchun 4 ta sinf honasiga interaktiv doska bilan taminlash.	1747	400 000	400 000	Fuqarolar tashabbusi jang'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi

5	1260400048	Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani 4-umum ta'lim maktabining - o'rinli faollar zali o'rindiqlari yaroqsiz holatga kelib qolganligi sababli faollar zalini yumshoq o'rindiqlari bilan taminlash. Maktab yerto'la qismi sizot suv bilan to'lib ketgan. Qish mavsumida o'quvchilar va xodimlarning sizot suv zaxi natijasida sog'lig'iga jiddiy tasir ko'rsatmoqda. Shu sababli maktab yerto'la qismidagi sizot suvlarni qochirish uchun 250 m zovur qazish lozim.	1118	250 000	250 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
6	1260400178	Yo'ldoshobod MFYdagi 15-sonli bolalar bog'chasiga bolalar uchun o'yin maydonchasi qurish lozim	1091	30 000	30 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman maktabgacha ta'limi bo'limi
7	1260400033	NAVBAHOR MFYdagi 20-sonli bolalar bog'chasiga bolalar uchun o'yin maydonchasi qurish lozim	1042	30 000	30 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman maktabgacha ta'limi bo'limi
8	1260400166	Navro'z MFYdagi 3-sonli bolalar bog'chasiga bolalar uchun o'yin maydonchasi qurish lozim	878	30 000	30 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman maktabgacha ta'limi bo'limi
9	1260400175	Navbahor MFYdagi 11-sonli bolalar bog'chasiga bolalar uchun o'yin maydonchasi qurish lozim	742	30 000	30 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman maktabgacha ta'limi bo'limi
10	1260400036	Sirdaryo viloyati Mirzaobod tumani Xalq ta'lim bo'limiga qarashli 26-umumta'lim maktabi kutubxonasini badiiy va ilmiy adabiyotlar bilan boyitish	728	30 000	30 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
11	1260400065	Mirzaobod tumani Do'ngariq mahallasi 27-sonli umumiy o'rta ta'lim maktabi 1998 yil tashkil etilgan 300 ga yaqin o'quvchi tahsil oladi maktabga bitta yopiq sport majmuasi sport zali kerak.	694	950 000	573 000	Fuqarolar tashabbusi jamg'armasi	Tuman Xalq ta'limi bo'limi
Taqsimlangan mablag'					2 523 000	x	x
Taqsimlanmagan mablag'					0	x	x






ГРАФИК ПЛАТЕЖЕЙ*
к договору (контракту) от 16.08.2022 г. № 2

между Акмал Сардор зиё хамкор МЧЖ и Мирзаобод туман МТБ на общую сумму 27880000,00

Глава _____ 251
Казначейский лицевой счёт _____ 401722860242287091100251014

(в сумах)

Наименование месяцев 2022 г.	Виды расходов** (соответствующий код бюджетной классификации)			Всего
	4332900			
Январь				
Февраль				
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август	27 880 000,00			27 880 000,00
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Всего за год	27 880 000,00			27 880 000,00

Всего 27880000,00 сум

Двадцать семь миллионов восемьсот восемьдесят тысяч сум 00
тийин
сумма прописью

Из вышеуказанной суммы 8364000,00 сум или 30,00%*** от общей суммы договора подлежат предоплате в _____ мес. 20__ г.

(*) — Бюджетные организации, получатели бюджетных средств и получатели средств ДЦФ, предоставляют в казначейские органы в 2 -х экземплярах;

(**) — Указывается раздел, глава, параграф и статья расхода;

(***) — Месячный _____ % , от указанной выше суммы который необходимо оплатить до _____ числа текущего месяца. (Данное поле заполняется со стороны бюджетных организаций, получателей бюджетных средств и получателей средств ДЦФ в случае осуществления предоплаты в соответствии с порядком, установленным законодательством по договорам за оказание коммунальных услуг, услуг связи и предоставления в регулярном порядке товара (работ, услуг) указанных в правовых документах.)

Руководитель заказчика



М.П.

(подпись)

Уралов Элдор Гуломжонович
Ф.И.О.

Главный бухгалтер заказчика

(подпись)

Маматкулов Дилшод Абдурахмонович
Ф.И.О.

Принял работник казначейского подразделения

(подпись)

Получил работник заказчика

(подпись)

«__» _____ 20__ г.

«__» _____ 20__ г.

ПУДРАТ ШАРТНОМАСИ № 2

2022 йил « 16 » август

Мирзабод тумани.

Кейинги ўринларда “Буюртмачи” деб юритиладиган Мирзаобод тумани Мактабгача таълим бўлими номидан *Низом* асосида иш кўрувчи раҳбари **Э.Ўралов** бир томондан ва “**AKMAL SARDOR ZIYO NAMKOR**” МСНЖ масъулияти чекланган жамияти кейинги ўринда “*Пудратчи*” деб юритиладиган номидан *Низом* асосида иш кўрувчи корхона раҳбари *А.Бойжигитов* ккинчи томондан *Мирзаобод тумани МТБ га қарашли 11-сонли мактабгача таълим ташкилотига болалар уйин майдончаси қуриш учун мазкур пудрат шартномасини тuzдилар.*

I. ТАЪРИФЛАР

1. Мазкур шартномада қуйидаги тарифлар қўлланилади:

Қурилиш объекти – мазкур шартнома (контракт) доирасида барча ишларни бажариш даврида далолатнома бўйича Буюртмачи томонидан Пудратчига берилган объект.

II. ШАРТНОМАНИНГ МАВЗУСИ.

2. Пудратчи мазкур шартнома шартларига қура Мирзаобод тумани “*Мактабгача таълим бўлимига қарашли 11-сонли мактабгача таълим ташкилотига болалар уйин майдончаси қуриш учун* лойихада кўзда тутилган объектни ободонлаштириш ишларини бажариш мажбуриятини олади, Буюртмачи эса Пудратчига таъмирлаш ишларини бажариш учун зарур шароитлар яратиш, уларни қабул қилиш ва тўловни амалга ошириш мажбуриятини олади..

III. ШАРТНОМА БЎЙИЧА ИШЛАР ҚИЙМАТИ

3. Мазкур шартнома бўйича Пудратчи томонидан бажарилган, (09.08.2022 йил № 129230-сонли баённома) билан тасдиқланган ишлар қиймати барча солиқлар, йиғимлар ва ажратмаларни ўз ичига олган ҳолда жорий нархларда **ККС билан 27 880 000 (Йигирма етти миллион саккиз юз саксон минг)** сўмни ташкил этади.

IV. ПУДРАТЧИНИНГ МАЖБУРИЯТЛАРИ.

4. Мазкур шартнома бўйича Пудратчи мазкур шартноманинг II бўлимда назарда тутилган ишларини бажариш учун:

Барча ишларни мазкур шартномада ҳамда унга 1-иловага мувофиқ ишларни бажариш жадвалида назарда тутилган ҳажмда ва мудатларда ўзининг кучлари (бош пудратчи ташкилотининг иш ҳажми 50 фоиздан кам бўлмаслиги керак) ёки жалб қилинган кучлар бажариш ҳамда ишни Буюртмачига мазкур шартнома шартларига мувофиқ топшириш;

Таъмирлаш жараёнида техника хавфсизлиги, ишларни бажариш вақтида атроф мухитни, ўтказилган дарахтларни ва ер учаскасини муҳофаза қилиш бўйича

зарур тадбирлар бажарилишини таъминлаш, шунингдек ёритиш чироклари ўрнатиш;

Мазкур шартномада назарда тутилган барча мажбуриятларни тўлиқ хажмда бажариш мажбуриятини ўз зиммасига олади.

5. Пудратчи мазкур шартнома бўйича барча ишларининг ўз кучлари билан ва субпудратчилар томонидан зарур тарзда бажарилиши ҳамда объектнинг фойдаланишга топширилиши учун Буюртмачи олдида тўлиқ мулккий жавоб беради.

V. Коррупцияга карши курашиш

5.1. Узбекистон Республика Президентининг 2021-йил 14-сентябрдаги ПФ-6313-сон қарори билан

Хужалик юритувчи субъектлар томонидан тузиладиган давлат харидлари билан боғлиқ шартномаларда коррупцияга карши курашиш тугрисидаги бандлар мажбурий белгилаб қўйилади.

5.2. Томонлар шартнома бўйича уз мажбуриятларини бажарётганда Узбекистон Республикасининг коррупцияга карши курашиш тугрисидаги қонун ҳужжатларининг талабларига зид келадиган ҳар қандай ҳаракатларни амалга оширмайдилар. Томонлар ушбу ҳаракатларга йўл қўймаслик бўйича чоралар қўрилишига қафолат беради.

5.3. Шартнома тарафи ва у томонидан жалб қилинган шахслар (субпудратчилар, агентлар ва томонлар назорат қиладиган бошқа шахслар) коррупцияга карши шартларни бажармаган тақдирда, бошқа томон шартномани бир томонлама тартибда тухтагиб туришга, бекор қилишга ҳақли.

VI. ИШЛАРНИ БАЖАРИШ МУДДАТЛАРИ.

7. Пудратчи биринчи аванс тўлови тушган кундан бошлаб ишларни бажаришга киришади.

8. Танлов савдолари натижаси бўйича аниқланган қўрилишнинг давом этиш вақти ишлар бошланган кундан эътиборан 30 кунни ташкил этади

VII. ТЎЛОВЛАР ВА ХИСОБ-КИТОБЛАР.

9. Буюртмачи Пудратчига шартнома бўйича ишлар умумий жорий қийматининг 30 фоизи миқдорида, аванс ўтказди, **яъни 8 364 000 (Саккиз миллион уч юз олти миш тўрт минг)** сўмни ташкил этади

10. Пудратчи объект фойдаланишга топширилгунга қадар мазкур шартнома бўйича объектга мулк ҳуқуқини ўзида сақлаб қолади. Объект Буюртмачига топширилгунга қадар объектнинг тасодифий йўқ қилиниши ва шикастланиши ҳавфи Пудратчининг зиммасида бўлади.

11. Буюртмачи мазкур шартнома бўйича ўз зиммасига қабул қилган мажбуриятларни шартнома кучга кирган кундан бошлаб қирк беш кун **мобайнида** бажармаган тақдирда, Пудратчи бу ҳақда қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда Буюртмачини ёзма равишда хабардор қилган ҳолда, шартномага ўзгартиришлар киритиш ёки шартномани бир томонлама тартибда бекор қилиш ҳуқуқига эгадир. Бунда Буюртмачи Пудратчи томонидан бажарилган ишлар учун ҳақ тўлашдан озод қилинмайди.

VIII. ИШЛАРНИ БАЖАРИШ.

13. Буюртмачи қурилиш майдонида ўз вакилини-техник аудиторни тайинлайди, у Буюртмачининг номидан бажарилаётган ишлар сифати устидан техник назорати амалга оширади, шунингдек Пудратчи томонидан фойдаланиладиган материаллар ва асбоб-ускуналарнинг шартнома шартларига ва иш ҳужжатларига мувофиқлигини текширади.

14. Техник аудитор ишлар бажарилишининг ва шартноманинг бутун даври мобайнида ишларнинг барча турлари билан тўсиксиз танишиш ҳуқуқига эгадир.

15. Пудратчи техник аудиторни ишлаш учун жой билан таъминлайди. Техник аудитор Пудратчи томонидан ўтказиладиган қурилиш майдонида ишларни амалга ошириш чоғида пайдо бўлувчи масалаларни ҳал қилиш бўйича йиғилишларда мунтазам равишда қатнашади.

16. Агар Буюртмачи Пудратчи ва (ёки) унинг субпудратчилари томонидан ишларнинг сифатсиз бажарилганлигини аниқласа, у ҳолда Пудратчи ўз кучлари билан ва қурилиш қийматини кўпайтирмасдан ушбу ишларнинг уларнинг зарур сифатини таъминлаш учун келишилган муддатда қайта бажаришга мажбурдир.

17. Агар Пудратчи сифатсиз бажарилган ишларни келишилган муддатларда тузата олмаса, Пудратчи уларни тузатишнинг кечикиши оқибатида етказилган зарарларни Буюртмачига тўлайди.

IX. ИШЛАРНИ ҚЎРИҚЛАШ .

18. Пудратчи ишлар бошланишидан таъмирлаш тугаллангунча ва таъмирлаш тугалланган объект буюртмачи томонидан қабул қилиб олингунга қадар объектни зарур даражада қўриқланиши таъминлайди.

19. Тикланган бинолар ва иморатлар, шунингдек материаллар, асбоб-ускуналар ва бошқа мол-мулк объект қабул қилиб олинганидан кейин сақланиши учун Буюртмачи жавоб беради .

X. ЕНГИБ БЎЛМАЙДИГАН КУЧ (ФОРС-МАЖОР) ХОЛАТЛАРИ.

20. Агар ушбу шартнома бўйича мажбуриятлар қисман ёки тўлиқ бажарилмаслиги табиат ходисалари ва бошқа енгиб бўлмайдиган куч ҳолатлари натижасида келиб чиқса ва агар бу ҳолатлар мазкур шартноманинг бажарилишига бевосита таъсир этса, томонлар бундай қисман ёки тўлиқ бажармаслик учун жавобгарликдан озод этадилар.

Мазкур шартнома бўйича мажбуриятларни бажариш муддати енгиб бўлмайдиган куч ҳолатлари амал қилган, шунингдек ушбу ҳолатлар юзага келтирган вақтга мутаносиб равишда узайтирилади.

21. Агар енгиб бўлмайдиган куч ҳолатлари ёки уларнинг оқибатлари бир ойдан кўп вақтга чўзилса, у ҳолда Пудратчи ва Буюртмачи ишларни давом эттириш ёки уларни консервация қилиш учун қандай чоралар кўрилишини муҳокама қиладилар.

22. Агар томонлар икки ой ичида келиша олмасалар, у ҳолда томонларнинг ҳар бири шартнома бекор қилинишини талаб қилишга ҳақлидир.

XI. ЖОРИЙ ТАЪМИРЛАНИШИ ТУГАЛЛАНГАН ОБЪЕКТНИ ҚАБУЛ ҚИЛИБ ОЛИШИ.

23. Жорий таъмирлаш тугалланган объектни қабул қилиб олиш шартномани имзолаш санасида амалда бўлган белгиланган тартибда мувофиқ мазкур шартномада назарда тутилган барча мажбуриятлар томонлар тарафидан бажарилгандан кейин амалга оширилади.

24. Объектлар уларнинг фойдаланишга тайёрлиги тўғрисида Пудратчининг ёзма билдиришномаси Буюртмачи томонидан олинган кундан бошлаб 10 кун мобайнида қабул қилиб олинади.

25. Пудратчи жорий таъмирлаш тугалланган объектни қабул қилиб олиш бошланишидан 10 кун олдин мазкур шартноманинг V бўлимига мувофиқ Буюртмачига Буюртмачи томонидан белгиланган таркибда икки нусхада ижро хужжатларини беради. Пудратчи Буюртмачига ушбу хужжатлар тўплами амалда бажарилган ишларга тўлиқ мос келишини ёзма равишда тасдиқлаш керак.

26. Қабул қилиб олинган пайтдан бошлаб объект Буюртмачининг мулкига айланади.

XII. КАФОЛАТЛАР

27. Пудратчи:

Барча ишлар тўлиқ хажмда ва мазкур шартнома шартларида белгиланган муддатларда бажарилишини;

лойиха хужжатларига ҳамда қурилиш меъёрлари, қоидалари ва техник шартларига мувофиқ барча ишларни бажариш сифатини;

хар ойда бажарилган ишлар хажмини тасдиқловчи (ойлик ҳисобат) ҳисоб-фактурани ҳисобот даврининг 25 санасигача топширишни;

узи томонидан жорий таъмирлаш учун қўлланиладиган қурилиш материаллари, конструкция ва тизимлар сифатини, уларнинг лойиха хужжатларида кўрсатилган сертификацияларга, давлат стандартларига ҳамда техник шартларига мувофиқлигини;

ишларни қабул қилиш ва объектдан фойдаланишнинг қафолатли даврида аниқланган камчиликлар ва нуқсонларни ўз вақтида бартараф қилишни;

объектдан фойдаланилганда муҳандислик тизимлари ва ускуналарининг фойдаланиш қоидаларига мувофиқлигини қафолатлайди,

28. Объект ва унга қирадиган муҳандислик тизимлари, асбоб-ускуналар, материаллардан фойдаланиш ва ишларнинг қафолатли муддати томонлар қурилиши туганланган объектни қабул қилиб олиш тўғрисидаги далолатномани имзоланган кундан бошлаб камида 6 ой этиб белгиланади. Объект **Мирзаобод тумани “Мактабгача таълим бўлимига қарашли 11-сонли мактабгача таълим ташкилотига болалар уйиш майдончаси қуриш учун** қафолатли муддати камида 12 ой этиб белгиланади.

29. Агар объектдан фойдаланишнинг қафолатли даврида аниқланиб, улар бартараф этилгунга қадар фойдаланишни давом эттириш имконини бермайдиган нуқсонлар аниқланса, у ҳолда қафолат муддат нуқсонларни бартараф этиш даврига узайтирилади. Нуқсонлар Пудратчи томонидан ўз ҳисобидан бартараф этилади.

Мавжуд нуқсонлар ва уларни бартараф этиш муддатлари Пудратчи ва Буюртмачининг икки томонлама далолатномасида қайд этилади.

30. Агар Пудратчи бажарилган ишлардаги нуқсонлар ва чала ишларни, жумладан ускуналарнинг камчиликларини далолатномада кўрсатилган муддат ичида бартараф этмаса, у холда ушбу шартноманинг умумий суммасидан бажарилмаган ишлар қиймати микдоридаги маблаг Буюртмачига қайтарилади.

XIII. ШАРТНОМА БЕКОР ҚИЛИШ

31. Буюртмачи:

шартнома кучга киргандан кейин жорий таъмирлаш бошланиши Буртмачига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра Пудратчи томонидан бир ойдан кўп вақтга кечиктирилганда;

ишларни тугатишнинг мазкур шартномада белгиланган муддати Пудратчининг айби билан бир ойдан ортиқ муддатга кўпайган холда, Пудратчи томонидан ишларни бажариш жадвалига риоя этилмаганда:

Пудратчи томонидан шартнома шартлари қурилиш меъёрлари ва қоидаларида назарда тутилган ишларнинг сифати пасайишига олиб келадиган даража бузилганда;

қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа асослар бўйича шартноманинг бекор қилинишини талаб қилиш ҳуқуқига эга.

32. Пудратчи:

ишларнинг бажарилиши Пудратчига боғлиқ бўлмаган сабабларга кўра Буюртмачи томонидан бир ойдан ортиқ муддатга тўхтатиб қўйилганда;

Буюртмачи томонидан молиялаштириш шартлари бажарилмаганда; Қонун ҳужжатларига мувофиқ бошқа асослар бўйича шартноманинг бекор қилинишини талаб ҳуқуқига эга.

33. Шартнома бекор қилинганда Буюртмачи ва Пудратчининг қўшма қарорига кўра тугалланмаган қурилиш бир ой муддатда Буюртмачига берилади. Буюртмачи бажарилган ишлар қийматини Пудратчига тўлайди.

34. Мазкур шартномани бекор қилишга қарор қилган томон мазкур бўлим қоидасига мувофиқ иккинчи томонга ёзма билдиришнома юборади.

35. Шартнома бекор қилинган тақдирда айбдор томон иккинчи томонга етказилган зарарни, шу жумладан бой берилган фойдани тўлайди.

36. Шартноманинг бир томонлама бекор қилинишига йўл қўйилмайди, қонун ҳужжатларида ёки мазкур шартномада назарда тутилган ҳоллар бундан мустасино.

XIV. ТОМОНЛАРНИНГ МУЛКИЙ ЖАВОБГАРЛИК.

37. Томонлардан бири шартнома мажбуриятларини бажармаган ёки зарур даражада бажармаган тақдирда айбдор томон;

иккинчи томонга етказилган зарарларни қоплайди;

Ўзбекистон Республикаси Фуқоролик кодексида, “Хўжалик юритувчи субъектлар фаолиятининг шартномавий-ҳуқуқий базаси тўғрисида” ги Ўзбекистон Республикаси Қонунида, бошқа қонун ҳужжатларида ҳамда мазкур шартномада назарда тутилган тартибда бошқача жавобгарликка тортилади.

38. Мазкур шартномада кўрсатилган ўз мажбуриятларига риоя қилмаганлиги, ўз вақтида молиялаштирмаганлиги ва шартномада белгиланган бошқа

мажбуриятларни бузганлиги учун Буюртмачи Пудратчига кечиктирилган хар бир кун учун мажбуриятларнинг бажарилмаган қисмининг 0,4 фоизи миқдорида пеня тўлайди, бунда пенянинг умумий суммаси бажарилмаган ишлар ёки кўрсатилмаган хизматлар қийматининг 50 фоизидан ошмаслиги лозим.

Пеня тўланиши Буюртмачини шартномага шартлари бузилиши туфайли етказилган зарарни коплашдан озод қилмайди.

39. Шартномага мувофиқ бажарилган ишлар ҳажмини тасдиқлашдан асоссиз равишда бош тортганлиги учун Буюртмачи Пудратчига ўзи тасдиқлашни рад этган ёки бош тортган сумманинг 0,5 фоизи миқдорида жарима тўлайди.

40. Пудратчи объектни ўз вақтида ишга тушириш бўйича ўз мажбуриятларини бузганлиги учун Буюртмачига муддати ўтказиб юборилган хар бир кун учун мажбуриятларнинг бажарилмаган қисмининг 0,5 фоизи миқдорида пеня тўлайди, бироқ бунда пенянинг умумий суммаси объект шартномавий жорий қийматининг 50 фоизидан ошмаслиги лозим.

Буюртмачи томонидан топилган нуқсонлар ва камчиликлар ўз вақтида бартараф этилмагани учун Пудратчи Буюртмачига муддати ўтказилиб юборилган хар бир кун учун сифатсиз бажарилган ишлар қийматининг 0,4 фоизи миқдорида пеня тўлайди, бунда пенянинг умумий суммаси сифатсиз бажарилган ишлар қийматининг 50 фоизидан ошмаслиги керак.

Пеня тўлаш Пудратчини ишларни бажаришнинг ёки хизматлар кўрсатишнинг кечикиши туфайли етказилган зарарларни коплашдан озод қилмайди.

41. Агар бажарилган ишлар сифати белгиланган стандартларга, қурилиш меъёрлари ва қоидаларига, иш ҳужжатарига мувофиқ бўлмаса, у ҳолда Буюртмачи “Даврархитектқурилишназорат” инспекциясининг ҳулосаси асосида объектни қабул қилиш ва унинг учун ҳақ тўлашдан бош тортиши, шунингдек Пудратчидан сифати зарур даражада бўлмаган ишлар қийматининг 20 фоизи миқдорида жарима ундириш ҳуқуқига эга.

42. Шартнома бўйича мажбуриятлар бажарилмаганлиги учун мазкур моддада назарда тутилган жазолардан ташқари шартномани бузган томон иккинчи томонга тарафидан қилинган харажатларда, мол-мулкнинг йўқотилиши ёки шикастланишида, шу жумладан бой берилган фойдада ифодаланадиган пеня билан қопланмаган зарарларни қоплайди.

43. Муддат ўтказиб юборганлиги ёки мажбуриятларнинг бошқача тарзда зарур даражада бажарилмаганлиги учун пеня тўлаш томонларни ушбу мажбуриятларни бажаришдан озод қилмайди.

XV. НИЗОЛАРНИ ХАЛ ЭТИШ ТАРТИБИ.

44. Шартномани бажаришда ва бекор қилишда шунингдек етказилган зарарни коплашда пайдо бўладиган низоли масалаларни томонлар хал этолмаса улар қонун ҳужжатларида белгиланган тартибда Гулистон туманлараро иқтисодий суди томонидан кўриб чиқилади.

XVI АЛОХИДА ШАРТЛАР

45. Мазкур шартнома имзолангандан кейин, мазкур шартномага тегишли бўлган томонлар ўртасидаги барча олдинги ёзма ва оғзаки битимлар, ёзишмалар, томонларнинг ўзаро келишувлари ўз кучини йўқотади.

46. Мазкур шартномага барча ўзгартириш ва қўшимчалар, агар улар ёзма шаклда расмийлаштирилган ва томонлар уларни имзолашган бўлса, ҳақиқий ҳисобланади.

47. Буюртмачи билан Пудратчи ўртасидаги мазкур шартномадан келиб чиқмайдиган янги мажбуриятлар пайдо бўлишига олиб келадиган ҳар қандай ахдлашувни томонлар мазкур шартномага қўшимчалар ёки ўзгартиришлар шаклида ёзма равишда тасдиқлаши керак.

48. Агар Пудратчи шартнома бўйича ишлар якунлангандан кейин қурилиш майдонида ўзига тегишли мол-мулкни қолдирса, у ҳолда Буюртмачи Пудратчи қурилиш майдонини озод қилиш санасигача бажарилган ишлар учун унга ҳақ тўлашни кечиктиришга ҳақлидир.

49. Мазкур шартномада назарда тутилмаган бошқа барча ҳоллар учун амалдаги қонун ҳужжатлари нормалари қўлланилади.

50. Мазкур шартнома бир хил кучга эга бўлган 2 нусхада тузилиб Ғазначилик бўлинмасидан рўйхатдан ўтгандан сўнг юридик кучга киради ва 2022 йил 31 декабрга қадар амал қилади.

XVII. ТОМОНЛАРНИНГ БАНК РЕКВИЗИТЛАРИ ВА ЮРИДИК МАНЗИЛЛАРИ.

БУЮРТМАЧИ:

Мирзаобод туман МТБ
Мирзаобод туман Наврўз шаҳарчаси
Мустақиллик кўчаси 2 уй
Тел: 310-12-68
ИНН: 305153605
ШХР: 401722860242287091100251014
ШХР:

Молия Вазирлиги Ғазначилиги
Х/Р: 23402000300100001010
ИНН: 201122919 МФО: 00014
ОКОНХ 90290

Э. Ўралов

ПУДРАТЧИ:

”АКМАЛ SARDOR ZIYO
НАМКОР” МСН Гулистон шаҳар 1
мавзй
Аламурадов кучаси 11 уй
Тел: 99-515-99-76
Х/Р: 20208000800639934001
Х/Р:

Банк; “Гулистон шаҳар Турон банки
МФО: 00368 ИНН: 304128840



А. Бойжигитов

“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Мирзаобод МТМ бўлими директори
Э.Уралов



«16» август 2022 йил

Наврўз ш.

ТАНЛАШ БАЁННОМАСИ

Қатнашдилар: Хайъат раиси: Э.Уралов МТБ мудири
Азолари : Д.Маматқулов Бош ҳисобчи
М.Ҳожибаев
Н.Уралов
Б.Абдураимов
М.Эшбекова
Кун тартиби

1. "ООО"Бегзод Мухаммадали МЧЖ таклифини ўрганиб чиқиш:
2. "Акмал Сардор Зийо Хамкор" МСНЖ таклифини ўрганиб чиқиш:

Кун тартибида қуйилган масала юзасидан хайъат раиси Э.Уралов сўзга чиқиб, йнгилиш қатнашчиларига Ўзбекистон Республикасининг 2021 йил 22 апрелдаги "Давлат харидлари тўғрисида" ги 684-сонли қонуннинг 7-боб 60-моддасининг талабларига мувофиқ ДМТТ ҳудудида уйингоҳлар қуриш учун "ООО"Бегзод Мухаммадали МЧЖ "Акмал Сардор Зийо Хамкор" МСНЖ лардан таклифлар олинганлиги маълум қилди.

Хизмат тури	Техник қисм бўйича умумий балл	Молнявий қисм бўйича умумий балл	Яқуний балл
ООО"Бегзод Мухаммадали МЧЖ	82	0	82
Акмал Сардор Зийо Хамкор" МСНЖ	100	0	100

Хайъат раиси: Э.Уралов ушбу кўрсатилган таклифини хайъат аъзоларига таништирди. Овозга қўйиш натижасида ДМТТ ҳудудида уйингоҳлар қуриш учун Акмал Сардор Зийо Хамкор" МСНЖ таклифи бўйича кўп балл тўплаганлиги сабабли, шу ташкилот билан 27 880 000 сўмга шартнома тузишга қарор қилди.

Харид комиссияси аъзолари мазкур лот иштирокчилари билан аффилиланганлик хусусиятига эга алоқалар мавжуд эмас.

Ўзбекистон Республикасининг "Давлат харидлари тўғрисида"ги Қонуннинг (ЎРҚ 684-сон, 22.04.2021й) 23-моддасига кўра, иштирокчи ва унинг аффилиланган шахси мазкур лотда иштирок этмаяпти.

Ушбу № 129230 сонли лот рақами бўйича Мирзаобод тумани МТБ томонидан тасдиқланган танлаш баённомаси юзасидан ҳеч қандай эътироз ёки норозиликлар юзага келмади.

Овозга қўйиш натижасида 5 та овоз билан Акмал Сардор Зийо Хамкор" МСНЖ голиб деб топилди. Юқоридагиларни инобатга олган ҳолда хайъат :

ҚАРОР ҚИЛДИ :

1. "ООО"Бегзод Мухаммадали МЧЖ, "Акмал Сардор Зийо Хамкор" МСНЖ ташкилотларидан тушган таклифларни этиборга олинсин.
2. Танлов ғолиби этиб "Акмал Сардор Зийо Хамкор" МСНЖ эълон қилинсин ва ушбу ташкилот билан 27 880 000 сўмга шартнома тузилиши маъқуллансин.

Аъзолари :

Э.Уралов

МТБ мудир

Д.Маматкулов

Бош ҳисобчи

Н.Уралов

Б.Абдураимов

М.Эшбекова

М.Хожобаев

YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN HUJJATLARIGA MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA HUQUQIY XULOSA

1. Loyihaning turi: Shartnoma.

2. Loyihaning nomi Mirzaobod tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi xamda "AKMAL SARDOR ZIYO HAMKOR " MCHJ o'rtasida 11-sonli maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalar o'yin maydonchasi qurish yuzasidan 2022 yil 16-avgustda tuzilgan 2-sonli shartnomasi.

WB53446713

3. Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot Mirzaobod tuman Maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan 2022 yil 16 avgust kuni Mirzaobod tuman yuridik xizmat ko'rsatish markaziga E- huquqshunos tizimi orqali taqdim etildi.

4. Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga va O'z.Res. 1998 yil 29 avgustdagi 670-1-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga hamda O'z.Res. 2021 yil 22 apreldagi O'RQ-684-sonli "Davlat xaridlari to'grisida"gi qonuniga muvofiq ishlab chiqilgan va uni qabul qilish maqsadga muvofiq.

Mirzaobod tuman yuridik
Xizmat ko'rsatish
markaz boshlig'i



X.G.Xalimov

16.08.2022 yil